


# Bolalar Muqaddas Kitobi

## Tasvirlab beradi



Xudo  
Tomonidan  
Yuborilgan  
Odam



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: E. Frischbutter; Sarah S.

60 ta hikoyadan 37-si

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

*Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada*

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Bir kuni Xudoning Ma'badida,  
Zakariyo ismli nuroni yuhoniy,  
tutatqi kuydirayotgan edi.  
Tashqarida odamlar ibodat  
qilishardi. To'satdan  
Zakariyoni qo'rquv  
bosdi.



1

Ruhoniy oldiga bir farishta kelgandi. "Qo'rhma,"  
dedi u.



2

"Meni Xudo yubordi. Sening xotining o'g'il tug'adi.  
Uning ismini Yahyo qo'yasan. U tug'ilgan zahoti  
Muqaddas Ruhga to'ladi.  
U ko'p insonlarni Xudoga  
qaytaradi."



3

"Zakariyo,  
bizlarga gapir."  
Tashqaridagi  
odamlar hayron  
qolishdi.



4

Ular, farishta  
Jabroil Zakariyo  
Xudoning xabariga  
ishonmagani uchun  
bolasi tug'ilmaguncha  
gapira olmasligini  
aytganini  
bilishmasdi.



5

Zakariyo xotinining  
yoshi o'tgani tufayli  
bola ko'rolmaydi deb  
o'ylagandi.




6

Uyiga kelib, Zakariyo farishta  
unga aytgan hamma narsani  
yozdi. Uning xotini Elizabet  
hayratda qoldi. Ular har doim  
bola uchun ibodat qilishgandi.  
Nahotki endi bolalik  
bo'lishsa?



7

Tez orada Elizabet  
homilador bo'lganini  
bilib qoldi. U Xudoni  
ulug'ladi. Bir kuni,  
Elizabetning jiyani  
Maryam ularnikiga  
mehmon bo'lib keldi.  
Maryam ham  
homilador edi.



8



Maryam kelganida,  
Elizabet qornidagi  
bolasi o'ynoqlab  
ketganini sezdi.  
Elizabet Muqaddas  
Ruhga to'lgan edi.

9



U Maryamning  
bolasi Rab Iso  
Masih bo'lishini  
bilardi. Ikki ayol  
birgalikda  
xursandchilik bilan  
Xudoni ulug'lashdi.

10



Xudo va'da qilganidek,  
Elizabetning bo'lasi  
tug'ildi. "Bolaga otasi  
kabi Zakariyo, deb ism  
qo'yinglar," dedi boshqa  
bir ruhoni. Zakariyo  
Xudoning amrini esladi.

11



"Yo'q! Bolaning ismi  
Yahyo." Zakariyo bu  
so'zlarni yozganida, u  
yana gapira oladigan  
bo'ldi. Shunda u  
Xudoni ulug'ladi.

12



Yahyo ulg'aygandan  
so'ng Ilyos payg'ambar  
kabi Xudoning buyuk  
odami bo'ldi. Yahyo  
odamlarga Masih tez  
orada kelib ularni  
marhamatlashini aytdi.

13




Yahudiy rahbarlar  
Yahyoni yomon  
ko'rishardi  
chunki u, ularga,  
"Tavba qilinglar!  
Gunoh qilishni bas  
qilinglar" degandi.

14



Ular o'z gunohlari haqida eshitishni xohlashmasdi.

15



Boshqalar uni Yahyo Cho` mdiruvchi deb atashardi, chunki u odamlarni gunohlaridan tavba qilganliklarini kursatish uchun suvga cho` mdirar edi.

16




Bir kuni Iso Yahyoning oldiga suvga cho` mdirilish uchun keldi. Yahyo "Sen meni suvga cho` mdirishing kerak" deya qarshilik qildi. Lekin Iso "Yozilganidek bulsin" dedi. Shunda Yahyo uni suvga cho` mdirdi.

17




Yahyo Isoni suvga cho` mdiriganida Muqaddas Ruh Isoning ustiga kabutar ko` rinishida qo` nganini ko` rdi. Bu Xudoning belgisi edi. Yahyo Iso Xudoning O`g`li ekanligini bilardi. Yahyo Isoni dunyoning gunohlarini oluvchi Xudovandning Qo`zisi deb atadi.

18



Yahyo ko` plab insonlarni Xudoga yaqinlashtirdi. Lekin Hirod, yovuz hokim Yahyoni zindonga tashladi. Yahyo Hirodga: "Ukangning xotini Hirodiyani olishing gunoh" dedi. Hirod buni to`g`riligini bilardi.

19



U Yahyo Xudoning odil va muqaddas xizmatchisi ekanligini bilardi. Lekin u gunoh qilishdan to`xtashni xohlamadi. Yahyo zindonga tushishini bilsa ham gunohga qarshi va`z qilishdan to`xtamasdi.


20

Hirod tug` ulgan kunida katta ziyofat qildi. Hirodiyaning qizi u uchun raqsga tushdi. Bu Hirodga yoqdi. U "Xohlaganiningni olasan, hatto shohligimning yarmini ham", deya va` da berdi.



21

Qiz "Nima so` rasam ekan" deya o`ylanib qoldi. Yahyodan nafratlanuvchi uning yozuv onasi Hirodiya nima so` rashni unga aytdi. Bu juda daxshatli edi!



22

"Menga Yahyo Cho` mdiruvchining boshini laganda olib kelib bering" dedi qiz Hirodga. U va` da bergenidan afsuslandi lekin va` dasini buzishga g`ururi yo`l qo`ymadi. "Yahyoning boshini olib kel" deya buyruq berdi Hirod. Uning askarlarni unga bo`ysunishdi.



23

G`amgin holda Yahyoning do`stlari Xudoning jasur va sodiq xizmatchisini ko'mishdi. Yahyoning Xudoga xizmati endi tugagandi. Balki ular qayg`ularida Iso ularga tasalli bera olishini bilishar edi.



24

Xudo Tomonidan Yuborilgan Odam

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Mark 6-bob, Luqo 1, 3-boblar

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130

Hudo, biz ko`p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb aytинг: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!